

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi
Raqamli texnologiyalar vaziri,
Vazirlik Ma’naviyat va ma’rifat
kengashi raisi



Sh.Shermatov
2024-yil 27-dekabr

O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi
Ma’naviyat va ma’rifat kengashi yig‘ilishining
BAYONI

2024-yil 27-dekabr

3-son

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: Sh. Shermatov, Raqamli texnologiyalar vaziri, Vazirlik Ma’naviyat va ma’rifat kengashi raisi

Kengash a’zolari: O.Pekos, J.Maxsudov, R.Karimjonov, D.Rustamov, J.Egamberdiyev, K.Sabirova, A.Ishanxodjaev, E. Rasulov, F.Anvarov, I.Turayev, Sh.Axmatov, M.Chulliyeva

Kengash raisi yig‘ilish kun tartibini muhokamaga qo‘ydi va Kengash a’zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilindi.

KUN TARTIBI:

**Raqamli texnologiyalar vazirligi tizimida ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishda
2024-yil davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida**

Sh. Shermatov, O. Pekos, J. Maxsudov, R. Karimjonov, D.Rustamov, J.Egamberdiyev, A. Ishanxodjaev...,
Sh. Shermatov

Yig‘ilishni Raqamli texnologiyalar vaziri, Kengash raisi Sh.Shermatov kirish so‘zi bilan ochib, 2024-yilda Vazirlik hamda uning tizimidagi korxona va tashkilotlarda ma’naviy-ma’rifiy ishlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 22-dekabr kuni o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida belgilab berilgan vazifalar ijrosi doirasida tashkil qilinganligini qayd etdi.

Jumladan, bu borada amalga oshirilayotgan ishlar natijasida Vazirlik joriy yilda “Qadring baland bo‘lsin, ona tilim” respublika tanlovida ishtirok etib, tanlov yakuniga ko‘ra, “Davlat tilida ish yuritish yo‘lga qo‘yilgan eng yaxshi tizim” nominatsiyasida 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi.

Shuningdek, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan o'tkazilgan tanlovning "Eng namunali vazirlik va idora" nominatsiyasida nomzod sifatida qatnashib, garchi o'rin ololmagan bo'lsa ham, Ishchi guruh tomonidan o'tkazilgan o'rganish davomida yo'nalishga oid kamchiliklar bartaraf etildi.

Xodimlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish maqsadida turli teatr va kinoteatrlarga o'tgan yilda 1620 dona chipta xarid qilinib, Vazirlik markaziy apparati xodimlariga tarqatildi.

Yangi yil bayrami munosabati bilan Vazirlik markaziy apparati departament, boshqarma va bo'limlarining barcha xodimlariga (202 nafar) "Jadidlar" to'plami sovg'a qilindi.

Bundan tashqari, Kengash raisi tomonidan Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda uning tizimidagi korxona va tashkilotlarda ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar yetarli darajada emasligini, bu boradagi ishlarni yanada kuchaytirish zarurligini, shu maqsadda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi bilan yaqindan hamkorlik qilish lozimligini, rahbar-xodimlar o'rtasida kitob va kitobxonlik targ'ibotini ommalashtirish kerakligini alohida qayd etdi.

Masala yuzasidan, Vazir maslahatchisi N.Abdullayev so'zga chiqib, "yo'l xaritasi" doirasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan umumlashtirilgan hisobotni taqdim qildi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2023-yil 22-dekabr kuni o'tkazilgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi kengaytirilgan yig'ilishi davomida berilgan topshiriqlar bo'yicha 50-son bayoniga ilova tarzida tasdiqlangan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishi hamda san'at sohasi vakillari bilan uchrashuvda bildirilgan taklif va tashabbuslarni amaliyotga joriy etish va sohani yanada rivojlantirish bo'yicha dasturning 11.1-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlik va tizimdagi korxona hamda tashkilotlarning 50 nafar xodimi 2024-yil 26–29-fevral kunlari "Ma'naviy hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy yo'nalish bo'yicha 32 soatlik malaka oshirish o'quv kursi namunaviy dasturi" asosida o'qitildi.

2024-yil davomida Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda uning tizimidagi korxona va tashkilotlar tomonidan mamlakat hayotiga oid muhim sanalar munosabati bilan 40 ga yaqin ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar, davra suhbatlari tashkil qilindi.

2024-yil davomida Vazirlik hamda uning tizimidagi korxona va tashkilotlar xodimlari uchun tashkil qilingan madaniy-ma'rifiy tadbirlar doirasida 5000 dan ortiq xodimning turli teatr va kinoteatrlarga tashriflari tashkil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining "2024-yilda "Moziyga sayohat" dasturi doirasida tashriflarni tashkil etishning maqsadli ko'rsatkichlarini tasdiqlash to'g'risida" 2023-yil 11-dekabrda 54-son bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida har oyda 70 nafar, jami 800 nafardan ortiq xodim muzeylarga jalb qilindi.

Ichki turizmni rivojlantirish maqsadida "Men yurtimni sevaman!" shiori ostida 14 marta mamlakatimizning turli hududlariga sayohatlar tashkil qilindi.

Jumladan, Raqamli texnologiyalar vazirligi Kasaba uyushmasi qo'mitasi, Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi bilan hamkorlikda 2024-yil 22-23-iyun kunlari ichki turizmni rivojlantirish maqsadida Vazirlik markaziy apparatining ixtiyoriy 60 nafar xodimi uchun "Men yurtimni sevaman" shiori ostida Buxoro viloyatida joylashgan ziyoratgohlarga sayohat tashkil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan o'tkazilgan 51 ta Siyosiy-ma'rifat soatida Vazirlik hamda uning tizimidagi korxona va tashkilotlar xodimlarining ishtiroki ta'minlandi.

"Yangi O'zbekiston", "Xalq so'zi", "Xabar" gazetalaridan tashqari "Jahon adabiyoti", "Sharq yulduzi", "Tafakkur" jurnallariga obuna tashkil qilindi.

Vazirlik tizimidagi korxona va tashkilotlar tomonidan "Jaholatga qarshi ma'rifat" mavzusida hamda Korruptsiya, mahalliychilik kabi salbiy illatlarning oldini olishga qaratilgan 50 ga yaqin tadbirlar o'tkazildi.

Yanvar-dekabr oylari davomida Vazirlik tomonidan tayyorlangan 45 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasi lingvistik ekspertizadan o'tkazilib, ularning davlat tili me'yorlariga mosligi ta'minlandi hamda o'rnatilgan tartibda xulosa taqdim qilindi.

Yanvar-dekabr oylari davomida Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi bilan doimiy ravishda muvofiqlashtirib borildi va 21 nafar xodim Bilimlarni baholash agentligi tomonidan o'tkazilgan test sinovlarida muvaffaqiyatli ishtirok etib, davlat tilini bilish bo'yicha daraja sertifikatini qo'lga kiritdi.

Yanvar-dekabr oylari davomida Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi hamda uning hududiy filiallarida Vazirlik markaziy apparati departament, boshqarma va bo'limlari, shuningdek, tizimdagi korxona va tashkilotlarning 250 nafar xodimining "Davlat tilida ish yuritish asoslari" bo'yicha malakasi oshirishi muvofiqlashtirib borildi.

Vazirlikning tegishli buyrug'i bilan tasdiqlangan ishchi guruh tarkibida joriy yilning 25–28-aprel kunlari Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasida, 2–5-iyul kunlari "O'zbektelekom" AK va "O'zbekiston pochta" AJda, 16-23-sentabr kunlari "Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi" DMda va "UNICON.UZ" MChJda davlat tilida ish yuritish hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini ta'minlash yo'nalishida amalga oshirilayotgan ishlar o'rganildi. O'rganish natijalariga ko'ra aniqlangan xato va kamchiliklar mas'ullar tomonidan bartaraf qilindi.

Yanvar-dekabr oylari davomida Vazirlik markaziy apparati departament, boshqarma va bo'limlari tomonidan tayyorlangan 1800dan ortiq buyruq, farmoyishlar va ularning ilovalari, chiqish xatlari, chora-tadbirlar rejalari hamda boshqa hujjatlar qat'iy tarzda davlat tili qoidalariga mosligi yuzasidan ko'rikdan o'tkazilib, tuzatishlar bilan kelishib berildi.

14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni, 9-fevral – Alisher Navoiy, 14-fevral – Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludi, 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni, 21-mart – Navro'z umumxalq bayrami, 7-may – Aloqachilar kuni,

9-may – Xotira va qadrlash kuni, 15-may – Xalqaro oila kuni 30-iyun – Yoshlar kuni, 30-iyul – Xalqlar do‘stligi kuni, 1-sentabr – Mustaqillik bayrami kuni, 1 oktyabr – Ustoz va murabbiylar kuni, 21 oktyabr - O‘zbek tili bayrami kuni, 18-noyabr - O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i qabul qilingan kun, 8-dekabr – Konstitutsiya kuni, 10-dekabr - O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan barcha mobil aloqa operatorlari tomonidan o‘z abonentlariga SMS-tabriklar yuborildi. Shuningdek, mazkur sanalar munosabati bilan 100 ga yaqin ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil qilindi.

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi bilan hamkorlikda har oyda muhim sanalarga bag‘ishlangan targ‘ibot materiallari Vazirlik va uning tizimidagi korxona va tashkilotlar xodimlari o‘rtasida telegram kanallar orqali keng targ‘ib qilindi.

Masala yuzasidan yig‘ilish ishtirokchilari o‘z taklif va mulohazalarini bildirdi.

Bildirilgan fikr-mulohazalar asosida **kengash qaror qiladi:**

1. Vazir maslahatchisi N.Abdullayevning Raqamli texnologiyalar vazirligi tizimida ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishda 2024-yil davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlik tizimidagi agentlik, inspeksiya, aksiyadorlik kompaniyalari, jamiyatlari, korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari:

2024-yilda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishda alohida o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarni rag‘batlantirish choralarini ko‘rsin va bu haqida Vazirlikka ma’lumot kiritсин;

O‘zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirligi tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo‘yicha 2025-yil uchun “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish maqsadida **2025-yil 6-yanvarga qadar** Vazirlikka o‘z takliflarining kiritilishini ta’minlasin;

2025-yilda ham “Jahon adabiyoti”, “Sharq yulduzi”, “Tafakkur” kabi nashrlarga obuna tashkil qilish choralarini ko‘rsin;

Vazirlikda har oyning oxirgi shanbasi “Teatr kuni” etib belgilanganligi munosabati bilan Vazirlik hamda tizimdagi korxona va tashkilotlar xodimlarining respublikamizning turli teatrlariga tashriflarini faollik bilan davom ettirsin;

xodimlarning kitobga bo‘lgan qiziqishini orttirish, ularda kitobxonlik madaniyatini yanada yuksaltirish maqsadida kitob yaramarkalarini tashkil qilsin;

mamlakatimiz hayotiga oid muhim sanalar munosabati bilan taniqli shaxslar ishtirokida xodimlar uchun ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil qilinishini ta’minlasin;

mazkur yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlarning o‘z rasmiy veb-saytlari hamda boshqa respublika miqyosidagi OAVda keng yoritilishini tashkil qilsin;

3. “Xabar” gazetasi tahririyati (A.Abdurahmonov)ga Vazirlik hamda uning tizimidagi korxona va tashkilotlar tomonidan ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni kengroq yoritish tavsiya qilinsin.

4. Kengash a'zolari mazkur yig'ilish qarori hamda ishlab chiqiladigan va tasdiqlanadigan 2025-yil uchun mo'ljallangan "yo'l xaritasi"da belgilangan o'z yo'nalishlari bo'yicha vazifalarning bajarilishiga mas'ul ekanligi belgilab qo'yilsin

5. Vazir maslahatchisi N.Abdullayev:

tizimdagi korxona va tashkilotlar tomonidan taqdim qilingan takliflar asosida Vazirlikning ushbu yo'nalishdagi 2025-yil uchun rejasini ishlab chiqsin va Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi bilan kelishgan holda tasdiqlash uchun kiritсин;

Kengash yig'ilishi qarori ijrosi ta'minlanishi ustidan doimiy nazorat o'rnatсин.

Kengash kotibi



N.Abdullayev